
RISHTON KULOLCHILIK MAHSULOTLARI “SEHRLI DIYOR”NI ZABT ETISHGA TAYYOR

Usta kulol Shokirjon Ahmadjonov rahbarligidagi “Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri yangi marralarni zabt etishda davom etmoqda. Shu kunga qadar ushbu klaster mahsulotlari Markaziy Osiyo va Yevropaning 10 ga yaqin mamlakatiga eksport qilinayotgaandi. Hamkor davlatlar soni yana bittaga ko'paydi.

Izlanuvchan va tinib-tinchimas Shokirjon Ahmadjonov yangi hamkorlarni izlash, klaster faoliyatini rivojlantirish borasida keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Kechagi kun “Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri tarixidagi yorqin iz qoldirdi. Aniqrog'i, Rishton kulolchilik mahsulotlarini “Sehrlı diyor” bo'lmish - AQShga eksport qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

“Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri binosida “Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri oilaviy korxonasi hamda Amerikaning “DIAMOND (USA) INC” kompaniyasi tomonidan 5 mln. dollar miqdoridagi shartnoma imzolandi. Shartnoma imzolash jarayonida tuman hokimi S. Soliev, “Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri oilaviy korxonasi rahbari Sh. Ahmadjonov, “DIAMOND (USA) INC” kompaniyasi direktori Samimulloxlardan ishtirok etishdi.

- Kulolchilik mahsulotlarimizning geografiyasi kengayib borayotganidan xursandman. Rishton tumanidan xorijiy mamlakatlarga eksport qilinayotgan mahsulotlarni ko'rsam, juda xursand bo'laman. Biz har doim xorijlik tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishga tayyormiz, dedi tuman hokimi.

- Ochig'ini aytsam, Rishton kulolchilik mahsulotlari meni o'ziga rom etdi. Ayniqsa, bu mahsulotlarning faqat qo'l mehnati orqali tayyorlanishi uning jozibadorligini oshirmoqda. Men “Mingboshi Keramik” kulolchilik klasteri oilaviy korxonasi hamkorlik qilayotganimdan xursandman, dedi “DIAMOND (USA) INC” kompaniyasi direktori Samimullox.

Ayni damda Rishton kulolchilik mahsulotlarini AQShga yuborish ishlari boshlangan. Uylaymizki, ushbu hamkorlik uzoq va samarali bo'lib, Rishton kulolchilik mahsulotlari dunyo mamlakatlarini lol qoldirishda davom etadi.

2022-07-06 06:41:51